

1-15 topshiriqlar	<i>Ona tili</i>
16-30 topshiriqlar	<i>Matematika</i>
31-45 topshiriqlar	<i>O'zbekiston tarixi</i>

ONA TILI

1.Qaysi gapda imloviy xatolikka yo'l qo'yilgan?

- A) Afsuski, yangiliklarga to'g'anoq bo'layotgan kimsalar hamon uchraydi.
- B) Yigit undan uzur so'rab, asta chiqib ketdi.
- C) Mirzo Ulug'bek faoliyatida ilmiy tafakkur yetakchilik qilar edi.
- D) Ziyrak va hushyor odam omad kelganida uni mahkam ushlaydi.

2.Qaysi gapda ot so'z turkumiga oid so'zlarning barchasi to'g'ri yozilgan?

- A) Talim va tarbiya uzlucksiz ravishda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.
- B) Nazariy bilimlardan hosil qilinadigan tushinchalar amaliyot bilan mustahkamlanadi.
- C) Bir bug'u ovchilardan qochib uzumzorga yashirindi.
- D) Xalil ota ana shu munosibatga loyiq bir odam edi.

3.Ushbu gaplarning qaysi birida // shartli belgisi o'rnida ikki nuqta qo'yiladi?

- A) Hamal keldi // amal keldi.
- B) Mening bir jaydari falsafamdir shu// Hargiz iltimosga kuning qolmasin.
- C) Yana uvlar dahshat shamoli// Ko'kni qora bulut quchadi.
- D) Ruboyni ichida o'qidi// yuzini tabassum qopladi.

4.Tinish belgisini qo'llash bilan bog'liq xatolik yuz bergen gapni toping.

- A) Hoy o'g'lim, bu yoqqa kel, qoqindiq.
- B) Aytishlaricha, ertaga to'y keladigan ekan, shuning uchun tayyorgarlik ham shunga yarasha edi.
- C) Odamlar kasal bo'laveribdi, ulardan qanchasi o'laveribdi-yu, sen bu dorilarni bosib yotaveribsan-da, noinsof!
- D) Uydagi hamma narsa; gilamlar, ko'rpatoshaklar, jihozlar qizil rangga burkangan edi.

5.Qaysi gapda imloviy va tinish belgisini qo‘llash bilan bog‘liq xatolik yo‘q?

- A) Bog‘imizda oq, qizil, sariq, pushti, havorang gullar ochilib yotibdi.
- B) Biz, albatta bu ilmiy loyihani amaliyatga tadbiq etishimiz lozim.
- C) Hattotga xatni qaytadan ko‘chirtirdi, ammo jo‘natishga ulgirmadi.
- D) Yog‘ib yubordida yomg‘ir, nihoyat, Osmon dil qulfini zaminga sochdi.

6.Qaysi javobda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar o‘zaro ko‘p ma’noli sanaladi?

- A) Talabalik – oltin davrim.
O‘zbekistonda oltin qazib olish yildan yilga rivojlanmoqda.
- B) Qatiq inson salomatligi uchun juda foydali mahsulot sanaladi.
Qattiq nonlarni tashlab yubormang.
- C) Yoshliging g‘animat, bolam, o‘sib, un.
Behuda chiqarma sado hamda un...
- D) Hech bo‘limgandan ko‘ra kech bo‘lgani yaxshi.
Bir qoshiq qonidan kech bu bechoraning.

7.Qaysi so‘zlar o‘zaro sinonim sanaladi?

- A) ganch, xazina
- B) makr, hiyla
- C) xiyol, ancha
- D) husn, chiroyli

8.Qaysi gapda antonim so‘zlar qo‘llangan?

- A) Necha asrlardan beri asir bo‘lib kelgan xalq endi bosh ko‘targan edi.
- B) Oqil va fozil kishilar suhabatida bo‘lishga odatlan.
- C) ...Qirg‘oq chiroy bilan to‘ladi,
Chechak ochsa, turfa gullari.
- D) Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi.

9.Qaysi javobda iboraning ma’nosi to‘g‘ri izohlangan?

- A) Og‘ziga talqon solgan – kamsuqum
- B) Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan – lapashang
- C) Yerga ursang, ko‘kka sapchiydi – sho‘x
- D) Kapalagi uchib ketdi – hayron bo‘ldi

10. Qaysi javobda o‘zaro sinonim iboralar qo‘llangan?

- A) O‘takasi yorildi – o‘pkasi o‘g‘ziga keldi
- B) Tegirmonga tushsa, butun chiqadi – tegganga tegib, tegmaganga kesak otadi
- C) Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi – hafsalasi pir bo‘ldi
- D) Tepa sochi tikka bo‘ldi – kapalagi uchib ketdi

11. Yasama sifatlar ishtirok etgan gapni aniqlang.

- A) U men bilan do‘sylarcha xayrlashib, yo‘lga tushdi.
- B) Yozgi mehnat – qishki rohat.
- C) Hulkarning yonoqlarida ajib bir qizillik o‘ynaydi.
- D) Elim deb, yurtim deb yashaganlar nomi mangudir.

12. Qaysi gapdagi fe’lning tarkibida nisbat qo‘sishimchasi ishtirok etgan?

- A) Men uni hammadan ham ko‘proq qizg‘anar edim.
- B) Osmondagи yulduzga boqib, hayot chashmasini qidiraman.
- C) Onasi o‘g‘lining ko‘ziga dorini ehtiyojkorlik bilan tomizdi.
- D) Alisher Navoiy o‘zbek tili mavqeyini yuksaklikka ko‘tardi.

13. Berilgan qaysi gapda gap bo‘laklari to‘ldiruvchi, aniqlovchi, ega va kesim tartibida joylashgan?

- A) Yigitlarga ishning hammasini topshirib ketdi.
- B) Xonaga sochlaring yarmi oqargan kishi kirib keldi.
- C) Uning gapiga kim ham qulq solardi.
- D) Hovlini qizlarning qahqahasi tutib ketdi.

14. Qaysi javobda to‘ldiruvchi uyushgan?

- A) Men kitob, qalam va daftarlarni darrov keltirdim.
- B) Yoshlar va keksalar bir joyga yig‘ilishdi.
- C) Bugun havo juda sovuq va tumanli edi.
- D) O‘z yurti va millatining ravnaqi uchun xizmat qilmoq oliy saodatdir.

15. Qaysi gapda qo‘llangan kelishik qo‘shimchasi o‘rnida boshqa kelishik qo‘shimchasini almashtirish mumkin?

- A) Cho‘ntagini ag‘dardi va ichidagi hamma narsani stolga qo‘ydi.
- B) Ularga bu tabiat manzarasi juda yoqdi va adirni uzoq kezishdi.
- C) Nazokatxонни ko‘rdim, u sira o‘zgarmabdi: hamon o‘shanday chiroyli.
- D) Bolalarning barcha aytganlari haqiqat edi, eshitib hayajonga tushdim.

MATEMATIKA

16. $\frac{1}{2}; 27; -2\frac{5}{6}; 0; -44$ va $2,71$ sonlardan nechta si butun son?

- A) 2
- B) 5
- C) 3
- D) 4

17. Hisoblang: $16 - 7 \cdot 3 + 28 : 4$

- A) 1
- B) 4
- C) 2
- D) 3

18. Axror kitobning $\frac{5}{7}$ qismini, Baxtiyor $\frac{5}{8}$ qismini, Doniyor esa $\frac{5}{6}$ qismini o‘qigan. Ulardan qaysi biri kitobning ko‘proq qismini o‘qigan?

- A) Doniyor
- B) Axror
- C) Baxtiyor
- D) ular teng qismida o‘qigan

19. $3\frac{1}{2} - 2\frac{1}{3} + \frac{5}{6}$ ni hisoblang.


- A) 1
- B) 4
- C) 3
- D) 2

20. Bir dona ko‘ylakning narxi 20 ming so‘m. 10 dona ko‘ylak sotib olinsa, 10% chegirma mavjud. 10 dona ko‘ylakni (chegirmasi bilan) necha so‘mga sotib olish mumkin?

- A) 200 ming
- B) 180 ming
- C) 190 ming
- D) 185 ming


21. Silindr qaysi raqam ostida joylashgan?

1	2	3	4
---	---	---	---



- A) 2
- B) 4
- C) 1
- D) 3

22. AB=12 dm bo‘lsa, bu muntazam uchburchakning perimetrini toping.




- A) 32 dm B) 24 dm
C) 36 dm D) 34 dm

23. Bir kub metr beton qorishmasini quydirish 50 ming so‘m. Balandligi 2 metr, eni 0,5 metr va uzunligi 18 metr (to‘g‘ri burchakli parallelepiped shaklida) bo‘lgan beton devor quydirish necha so‘m bo‘ladi?

- A) 950 ming B) 1 mln
C) 900 ming D) 980 ming


24.



Anvar (uyidan maktabga, maktabdan savdo markaziga borishi uchun) yo‘lni necha xil usulda tanlashi mumkin?

- A) 3 B) 5
C) 2 D) 6

25. Quyidagi sxemadan foydalanib $a = 2$ bo‘lsa, natijani toping.




- A) 4 B) 15
C) 9 D) 13

26. Amallarning bajarilish tartibini aniqlang.

$$\begin{array}{l} \langle a \rangle \quad \langle b \rangle \quad \langle c \rangle \quad \langle d \rangle \\ 100 - 45 \cdot 2 + 30 : 6 \end{array}$$

- A) $\langle b \rangle, \langle d \rangle, \langle a \rangle, \langle c \rangle$
- B) $\langle a \rangle, \langle b \rangle, \langle c \rangle, \langle d \rangle$
- C) $\langle b \rangle, \langle d \rangle, \langle c \rangle, \langle a \rangle$
- D) $\langle c \rangle, \langle a \rangle, \langle b \rangle, \langle d \rangle$

27. Rasmda birinchi, ikkinchi va uchinchi kunlari havo haroratlarining o‘zgarish grafigi keltirilgan.



Quyidagi ma’lumotlardan qaysi biri to‘g‘ri?

- A) Uchinchi kuni eng quyisi harorat 3 gradus bo‘lgan
- B) Birinchi kuni eng yuqori harorat 11 gradus bo‘lgan
- C) Ikkinci kuni eng yuqori harorat 12 gradus bo‘lgan
- D) Uchinchi kuni eng yuqori harorat 14 gradus bo‘lgan

28. $4\text{ m}^2 37\text{ dm}^2 = \boxed{\quad ? \quad} \text{ dm}^2$

- A) 77
- B) 437
- C) 347
- D) 117

29. A mulohaza “ $236 > 25 \cdot 6$ ”, B mulohaza esa “nol bilan tugagan sonlar 10 ga qoldiqsiz bo‘linadi”.

Quyidagilardan qaysi biri to‘g‘ri?

- A) A yolg‘on va B rost
- B) A rost va B yolg‘on
- C) A va B rost
- D) A va B yolg‘on

30. Xaridning umumiyligi to‘lovi (ming so‘m) topilsin.

Nomi	Narxi (so‘m)	Soni
Daftar	2000	8
Qalam	800	12
Albom	3000	1
Ruchka	1000	3
Chizg‘ich	1400	1

- A) 33
- B) 34
- C) 32
- D) 35

O‘ZBEKISTON TARIXI

31. Massagetlar malikasi To‘maris kimlarga qarshi kurashgan?

- A) arablarga
- B) eron ahamoniylariga
- C) yunon-makedonlarga
- D) mo‘g‘ullarga

32. Quyidagilardan O‘rta Osiyo tarixi bo‘yicha eng qadimgi yozma manbani toping.

- A) Behistun yozuvlari
- B) “Avesto”
- C) Gerodotning “Tarix” asari
- D) Strabonning “Geografiya”

33. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ish faoliyatini boshlagan yilni belgilang.

- A) 1997-yil
- B) 1993-yil
- C) 1995-yil
- D) 1998-yil

34. Quyidagi sulolalardan qaysi biri Buxoro amirligida hukmronlik qilgan?

- A) shayboniylar
- B) qo‘ng‘irotlar
- C) mang‘itlar
- D) minglar

35. Quyidagilardan Turkiston general-gubernatorligining markazi bo‘lgan shaharni toping.

- A) Farg‘ona
- B) Toshkent
- C) Samarqand
- D) Buxoro

36. Ikkinci jahon urushi yillarida O‘zbekistonning qaysi shahrida metallurgiya zavodi bunyod etilgan?

- A) Navoiy
- B) Qo‘qon
- C) Buxoro
- D) Bekobod

37. Ilk o‘rta asrlarda “qishloq hokimi” ma’nosini bergen atamani belgilang.

- A) eloqxon
- B) shod
- C) dehqon
- D) yabg‘u

38. Quyidagilardan Xorazm davlatini boshqargan so‘nggi xorazmshohni belgilang.

- A) Takash
- B) Jaloliddin Manguberdi
- C) Ma’mun ibn Muhammad
- D) Otsiz

39. Sherdor madrasasi quyidagi qaysi shaharda bunyod etilgan?

- A) Xiva
- B) Buxoro
- C) Samarqand
- D) Toshkent

40. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi qaysi yillarga mo‘ljallangan?

- A) 2018-2022-yillarga
- B) 2019-2024-yillarga
- C) 2017-2021-yillarga
- D) 2020-2025-yillarga

41. Nechanchi yilda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan?

- A) 1992-yilda
- B) 1995-yilda
- C) 1989-yilda
- D) 1985-yilda

42. Quyidagilardan podsho Rossiyasining mustamlakachilik jabr-zulmiga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘oltonni toping.

- A) Dukchi eshon boshchiligidagi qo‘zg‘olon
- B) Muqanna boshchiligidagi qo‘zg‘oloni
- C) Mahmud Torobiy qo‘zg‘oloni
- D) Abruy boshchligidagi qo‘zg‘olon

43. O‘zbekiston Respublikasida ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi organni toping.

- A) Konstitutsiyaviy Sud
- B) Oliy Majlis
- C) Oliy Sud
- D) Vazirlar Mahkamasi

44. “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asari muallifini toping.

- A) Zahiriddin Muhammad Bobur
- B) Abu Ali ibn Sino
- C) Abu Rayhon Beruniy
- D) Mirzo Ulug‘bek

45. Zahiriddin Muhammad Bobur Samarqand taxti uchun kurashda quyidagi qaysi hukmdordan mag‘lubiyatga uchragan?

- A) Muhammad Shayboniyxon
- B) Abulg‘oziyxon
- C) Ismoil Safaviy
- D) Mirzo Ulug‘bek